



**YORDAMGA MUHTOJ BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQINING O'ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI**

Laylo Nurmuxamedova

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Oligofrenopedagogika kafedrasи
dotsenti, p.f.n.*

Xabibullayeva Orungul

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Xudaynazarova Noila

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *mazkur maqolada yordamga muhtoj bolalar nutqni shakllantirish, bog'langan nutqning o'ziga xos xususiyatlari, aqli zaif bolalarning nutq orqali fikrlarini yetkazishdagi muammolari, ularning nutqlarini shakllantirish usullari haqida fikr yuritilgan. Aqli zaif bolalar nutqining shakllanish bosqichlari, ota-onalar, logopedlar va pedagoglar amalga oshirishi kerak ishlar yuzasidan qarashlar bayon qilingan.*

Kalit so'z va iboralar: *aqli zaif, nutq, xususiyat, Vatan, sog'lom avlod, shaxs.*

Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev aytganlaridek: «Biz jamiyatimizdagи quyи pog'onadagi tartib, intizom va mas'uliyatni mutlaqo o'zgartirmoqchimiz. Eng zaif tomonimiz - yoshlar bilan shug'ullanmayapmiz. Buni gapirish oson, endi shug'ullantiradigan tizim joriy etishimiz kerak. Mas'uliyatli odamlarni shu lavozimlarga qo'yishimiz kerak» .

Mamlakatimizda ma'naviy tarbiya, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki inson jamiyatning tayanchidir. Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek, "...kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yesishтирishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir... Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi". Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda mas'uliyatli vazifa, shu bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir. Sog'lom avlodni tarbiyalab o'stirish g'oyatda mas'uliyatli vazifa, shu bilan birga nnsonparvar siyosat natijasidir.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy himoyalash ta'lim olish barcha qatori umumta'lim muassasalarida teng huquqli sharoitda ta'lim-tarbiya olish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Yuqorida zikr etilgan davlat hujjatlarining mazmun-mohiyati, asl maqsadi ham yosh avlodni ma'naviy barkamol inson sifatida tarbiyalashga qaratilgan. O'zbekistonda barcha sohalarning, ayniqsa, ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yaratilishi, davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi muallim va ustozlar zimmasiga yuksak vazifalar yukladi.

Mamlakatimizda aqli zaif bolalarning sog'lom tengqurlari qatori milliy ruhda tarbiyalishlari, aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagи ijtimoiy hayotga mustaqil, yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari



masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar yuz berayotgan bir vaqtida Vatan ravnaqini ko'zlash maqsadida asosiy e'tibor yoshlarning aqliy, ahloqiy, jismoniy barkamoligiga demak, har tomonlama yetuk, sog'lom avlodni o'stirishga qaratilyapti. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko'zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e'tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz.

Jamiyatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar yuz berayotgan bir vaqtida Vatan ravnaqini ko'zlash maqsadida asosiy ye'tibor yoshlarning aqliy, ahloqiy, jismoniy barkamoligiga demak, har tomonlama yetuk, sog'lom avlodni o'stirishga qaratilyapti. Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda ma'suliyatli vazifa, shu bilan birga insonparvar siyosat natijasidir. Ta'limni isloh qilish va rivojlanantirishga qaratilgan hukumat qarorlarining negizida barkamol avlod tarbiyasi asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Bu narsa o'z navbatida milliy g'oya tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan borar yekan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlab, jamiyatni ma'naviy jihatdan boyitib borishni, dunyo hamjamiatiga integratsiyalashuvni amalga oshirmoqda.

Aqli zaif bolaning nutqni egallashdagi xususiyatlarini, intellektual nuqsonli bolalar nutqining shakllanishini o'rganish, ushbu bolalar bilan mакtabgacha yoshda, ya'ni nutqning eng senzitiv (jadal) rivojlanishi davrida ish olib borish mazmuni va metodlarini, yo'naliшlarini aniqlash alohida ahamiyat va dolzarblik kasb etadi. Chunki haligacha intellekti buzilgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'rganishga qaratilgan fundamental izlanishlar olib borilmagan. Mayjud pedagogik, maxsus psixologik va metodik adabiyotlarda ushbu toifadagi bolalar nutqi rivojlanishining boshlang'ich bosqichlari haqida yo'l-yo'lakay keltirilgan ma'lumotlarnigina ko'rish mumkin.

Aqli zaif bolalar o'z taasurotlarini tinglovchilarga bildirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning hikoyalari xamma vaqt ham tinglovchilarga tushunarli bo'lavermaydi. Bunga sabab aqli zaif bolalarning keng monolog tarzida so'zlashni juda bo'sh egallaganliklaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bog'langan nutq juda sekin egallyay boshlaydilar. Me'yorida rivojlanayotgan bolalar ko'pincha o'z taasurotlarini boshqalarga hikoya qilib berishga intiladilar, ko'rganlari haqida ma'noli, tushunarli va mantiqiy hikoya qilib berish, o'z fikrini to'g'ri tuzilgan jumlalar bilan ifoda etish imkonini beradigan og'zaki nutq shaklini egallahsga ehtiyoj paydo bo'ladi. Aqli zaif bolalar ham maktabgacha bo'lgan davrdan boshlab yordamchi mакtabda o'qish, aqliy jihatdan kamchiliklarini bartaraf qilish, keyinchalik esa ijtimoiy hayotga va qo'llaridan keladigan ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash uchun zarur bo'ladigan bu murakkab so'zlashish malakasini egallahslari zarur.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Aqli zaif bolalarda dastlabki so'zlarning kechkib hosil bo'lishi (dastlabki so'zlar 3-4 va hatto 5 yoshlarda paydo bo'ladi), so'z birikmalarini egallah davrining sekin va qiyinchilik bilan kechishi, so'zlardan gaplarni tuzish uzoq vaqt talab etilishi, nutqiy ijodiyotda mustaqillikning yetishmasligi, nutqiy faollik darajasining pastiligi, nutqiy muloqot kambag'alligi kuzatiladi. Aqli zaif bolalar bir nechta gaplarni o'zaro biriktirib, fikrning mantiqiy izchillikda bayon qilishga, sabab va oqibatning ketma-



ketlikda bildirishga, bayon qilinayotgan hodisadagi muhim xususiyatlarni ajratishga qiynaladilar. Aqli zaif bolalarning barcha toifalari uchun nutqiy faoliyatning buzilishi umumiyl xususiyat hisoblanadi. Nutqiy o'sishdagi yetishmovchilik aqli zaif bolalarning atrofdagilar bilan muloqotini cheklab qo'yadi. Bu, o'z navbatida, bilish, so'z bilan uyg'unlashgan axborot olishni ma'lum ma'noda o'sishdan to'xtatib qo'yadi. Aqli zaif bolalar nutqini o'stirish qiyin kechsa-da, ta'lim-tarbiya jarayonida nutq hamisha diqqat markazida turishi lozim. Nutq tarbiyasi ta'lim asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham aqli zaif o'quvchilar muloqat ko'nikmalarini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda; 20-son, 354-modda; 23-son, 448-modda.
2. Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-son Farmoni. 2017 yil 1 dekabr.
3. Nurmuxamedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari. Nomzodlik diss.avtoreferati, 2006
4. Nurmuxamedova L.Sh. Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa xamkorligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). -T.: «Fan va texnologiya», 2014
5. N. Q. Abidova Autizm spektrli bolalarni o'qitish va tarbiyalash/o'quv qo'llanma. Toshkent – 2023 y.
6. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA //INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS." International Scientific and Current Research Conferences. – 2022.
7. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA" INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2022. – C. 241-247.
8. Abidova, N. K. (2023). Psychological and pedagogical study of children with autism. Oriental Journal of Education, 3(03), 61-65.
9. Qutbiddinov, A. N. (2022). Technology of forming geometric concepts in primary class students with intellect defects on the basis of " integration Cluster". Journal of Pharmaceutical Negative Results, 6461-6466.



10. Nazokat, A. (2023). Autizm spektori buzilgan o 'quvchilarining bilish faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 412-415.
11. Abidova, Nazokat. "Positive effects of formation of knowledge, skills and skills on the basis of interdisciplinary relations." Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 2505-2510.
12. Qutbiddinovna A. N. AUTIZM SPEKTORLI BOLALARDA IJTIMOIY-MAISHIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH: doi. org/10.5281/zenodo. 10555394 //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – T. 1.№. 1.
13. Obidova, B., & Abidova, N. Q. (2023). RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR LUGAT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 417-419.
14. Abdupattayeva, D., and N. Q. Abidova. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLUZIV TA'LIMGA KIRITISH UCHUN ULARNING OTA-ONALARINI TAYYORLASH YO 'LLARI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 758-760.
15. No'monjonova, R., & Abidova, N. Q. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 448-450.
16. Sharobidinova F., Abidova N. Q. AUTIZMGA EGA BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK O'RGANISH //QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 761-763.
17. Ubaydullayeva M., Abidova N. Q. O'ZBEKISTONDA AQLI ZAIF BOLALARNI ERTA TASHXIS QILISH MUAMMOLARI //QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 764-766.